

Batumiga ilk media tur

2022 15 June

Uzbekistan Airways O'zbekistonlik OAV vakillari, blogerlari, influyuyenslerlari uchun Batumiga birinchi media turni tashkillashtirdi.

Birinchi media tur Toshkent – Batumi – Toshkent aviaqatnovini yo'lovchilar o'tasida ommalashtirish, Gruziyaning turistik joylari bilan tanishtirish va ikki davlat fuqarolarining mobilligini oshirish maqsadida tashkil etildi.

Eslatib o'tamiz, 2022-yil 21-maydan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent – Batumi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviaqatnovlarni amalga oshirishni boshlagan edi. Batumi – Qora dengiz sohilida joylashgan, Turkiya bilan chegaradosh va Gruziyaning eng maftunkor hududi bo'lgan Adjariya Avtonom Respublikasining poytaxtidir. Adjariya qadimiy yodgorliklari, ajoyib tabiat, quyoshi va go'zal plyajlari, milliy bog'lari va viqorli tog'lari bilan sayyoohlarni o'ziga tortadi.

Media tur 15-iyundan 18-iyungacha bo'lib o'tadi.